



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/1 (10)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

SAIDOVA Galina Karimovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – psixologiya fanlari doktori, professor.

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BEKMURADOV Adham Sharipovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova – pedagogika fanlari doktori, professor.

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAIDOV Akmal Xolmatovich – yuridik fanlari doktori, professor.

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – tibbiyot fanlari nomzodi.

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZIYAYEV Azamat Xamidovich – tarix fanlari doktori, professor.

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – psixologiya fanlari doktori.

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Сайдова Галина Каримовна – доктор экономических наук, профессор.

Шоумаров Гайрат Бахрамович – доктор психологических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

Бекмурадов Адхам Шарипович – доктор экономических наук, профессор.

Маъруфова Гулнора Махмудовна – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

Мусурманова Айниса Мусурмановна – доктор педагогических наук, профессор.

Рахимова Нигина Хайруллаевна – доктор экономических наук, профессор.

Сайдов Акmal Xolmatovich – доктор юридических наук, профессор.

Якубжанова Dilobar Batirovna – доктор педагогических наук, доцент.

Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna – кандидат медицинских наук.

Умирзаков Bakhodir Khamidovich – доктор экономических наук, профессор.

Зияев Azamat Khamidovich – доктор исторических наук, профессор.

Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli – доктор психологических наук.

Turakulov Ulugbek Holbutayevich – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Saidova Galina Karimovna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich – Doctor of Psychological sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

Bekmuradov Adkham Sharipovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Marufova Gulnora Makhmudovna – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Saidov Akmal Kholmatovich – Doctor of Juridical sciences, Professor.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

Tashmukhamedova Diloram Ghafurjanovna – Candidate of Medical sciences.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ziyayev Azamat Khamidovich – Doctor of Historical sciences, Professor.

Abdusamatov Xasanboy Usmonjon ugli – Doctor of Psychological Sciences.

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

XALQARO TAHIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,

Rossiya va Markaziy Osiyon

o'rganish markazi dotsenti

Xalqaro tadqiqotlar maktabi,

Javoharlal Neru universiteti,

Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,

Chelyabinsk davlat madaniyat

instituti,

pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,

Texnologiya fakulteti boshlig'i,

London biznes va moliya maktabi,

Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,

Доцент Центра исследований

России и Центральной Азии,

Школа международных

исследований,

Университет Джавахарлала Неру,

Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина

Iosifovna,

Челябинский государственный

институт культуры,

доктор педагогических наук,

профессор

Доктор Прити Кесаван,

Руководитель Технологического

факультета

Лондонская школа бизнеса и

финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL

BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar

Assistant Professor

Centre for Russian and Central Asian

Studies

School of International Studies

Jawaharlal Nehru University

New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna

Chelyabinsk State Institute of Culture

Doctor of Pedagogical Sciences,

Professor

Dr. Preethi Kesavan

Head, School of Technology

London School of Business and

Finance, Singapore

MENEJMENT

Abdullajanova D.S. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari	4
--	---

SOTSILOGIYA

Saipova M. Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar	10
Xonturayev B. Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari	16
Йулдошева У. Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане	25
Hashimova G.I. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari	32

MAHALLA VA HAYOT

Isamutdinov R.R. Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati	37
--	----

OILA VA JAMIYAT

Abdiraimova Sh.A. Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari.....	44
Rahimova M. Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi	49
Dovranova O.D. Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish.....	53
Mahkamov U.A. So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida.....	58

PSIXOLOGIYA

Рахимова И.И., Каримова Г.О. Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха	64
Абидова З.А. Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности	69
Ishonkulova N.I. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	75
Raxmonova Z.N. Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari.....	80

PEDAGOGIKA

Ortikov U.X. The socio-educational model in second language acquisition.....	86
Yulchiyeva D.X. Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat	92
Аблакулов Ш.Д. Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов	98
Mirhamidova M. Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari	104
Safoyeva R.J. Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari.....	109
Yakubov O.T. Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari	114

TARIX

Sharipova N.A. XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi.....	118
--	-----



Abdiraimova Shaxnoza Abdugappar qizi,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
Oilani demografik rivojlantirish bo‘limi ilmiy xodimi

YOSH OILALARDA AJRALISHLARNING OLDINI OLISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh oilalarning ajrashishlar darajasi, sabablari, muammoli oilalar bilan ishlash, yosh oilalarda ajrashishlar darajasini kamaytirish hamda oldini olish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: nikoh, yosh oila, muammoli oilalar, er-xotin munosabatlari, ajrashishlar, oilani saqlab qolish.

Аннотация. В статье приведены данные об уровне разводов в молодых семьях, их причины, а также предложения и рекомендации по работе с проблемными семьями, снижению уровня разводов в молодых семьях и их предотвращению.

Ключевые слова: брак, молодая семья, неблагополучные семьи, супружеские отношения, разводы, сохранение семьи.

Annotation. The article provides data on the level of divorces in young families, their causes, as well as suggestions and recommendations for working with problem families, reducing the level of divorces in young families and preventing them.

Keywords: marriage, young family, troubled families, marital relations, divorces, family preservation.

Kirish. Barqaror tarzda ravnaq topayotgan mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oila institutini har tomonlama rivojlantirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, har bir oilani, undagi sog‘lom ma’naviy muhitni asrab-avaylash, er-xotin, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin va qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi mehr-oqibat hissini shakllantirish bo‘yicha bir qancha dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda, ular amalda o‘zining ijobjiy natijasini bermoqda.

Ta’kidlash joizki, amaliyotda oilalarda oila va nikoh munosabatlari bilan bog‘liq turli tushunmovchiliklar, xato va kamchiliklar, mojarolar uchrab turadi. Bunga ko‘pincha nizodagi taraf bo‘lgan fuqarolarning o‘z haq-huquqlarini, amaldagi qonun hujjatlarini yaxshi bilmasligi yoki ikkinchi tarafning huquqini tan olmasligi sabab bo‘lmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyunda “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning softigini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida jamiyatimiz hayotida, xalqimiz orasida uchrab turadigan, ayniqsa oila va nikoh sohasida duch kelinayotgan o‘ta dolzarb, og‘riqli va o‘tkir muammolar to‘g‘risida, xususan, turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlarining uchrab turganligi, yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajrashishlar ko‘payib borayotgani, begunoh bolalar yetim bo‘lib, mehr va e’tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolayotgani haqida gapirib, “... oilalarda nosog‘lom munosabatlari, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni

qattiq iztirobga solmoqda”, degan edilar. Darhaqiqat, jamiyat va davlat uchun oila, nikoh, onalik, otalik va bolalik ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Zero, ushbu tushunchalar jamiyat va davlat shakllanishini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Jamiyatimizda eng dolzarb masalalardan biri bu ajrashish holatlarining yildan yilga ortib borayotganidir. Ayniqsa, yosh oilalarda ajrashish holatlarining ko‘payib borayotgani achinarli holatdir. Respublikada yosh oilalarning ajralib ketishi bilan bog‘liq bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan tanishsak. Yigit-qizlarning erta, mustaqil hayotga tayyor bo‘lmay turib, juda ko‘p holatlarda endigina mактабни bitirgan 16-17 yoshli qizlarni turmushga berishadi. Hozirgi davrda aksariyat 16-17 yoshli qizlar ruhiyati maktab muhitida bo‘ladi. Ularning ko‘philigi maktabni tugatib, yana o‘qishni davom ettirish, kasb-hunar egallash, ishlash, oilasi uchun moddiy yordam berish, o‘zining “kam-ko‘stlari”ni butlash maqsadi shular jumlasidandir. Ota-onasi bag‘rida bolalik orzulari bilan yashagan, mustaqil turmush qurishga o‘zini ruhan tayyorlamagan ko‘philik qizlar boshqa bir xonadonga kelin bo‘lib tushadilar. Lekin, afsuski, kelin tushgan aksar xonodon shu 16-17 yoshli hali maktab, bolalik muhitida yurgan qizdan juda ko‘p hayotiy vazifalarni talab qiladi. Ushbu talablarni bajarishga qodir bo‘lmagan qiz qiynaladi, natijada oilada ko‘p kelishmovchiliklar chiqadi va bu nikohning buzulishiga olib keladi. Ana shunday vaziyat erta turmush qurban yigitlarda ham mavjuddir. Chunki bazi ota-onalar o‘g‘il farzandlarini 18–20 yoshida uylantirib qo‘yadi. Bu yoshda biror kasb-hunarga ega bo‘lishga ulgurmagan yigitlarning mustaqil oila boqish uchun iqtisodiy imkoniyati bo‘lmaydi, natijada yigitning o‘zi ham, uning rafiqasi, ba’zan uning farzandlari ham ota-onasiga yoki akalariga boqimanda bo‘ladi. Bu vaziyat oiladagi iqtisodiy kelishmovchiliklarga, muammolarga sabab bo‘lib, yosh oilaning buzulishigacha olib kelishi mumkin¹. Ushbu muammolardan kelib chiqgan holda yosh oilalarda ajrashish holatlarini bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilib, ularni kamaytirish maqsad qilib olindi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda oilalarga xos bo‘lgan umumiyl xususiyatlarni quyidagi omillar orqali aniqlash mumkin: tug‘ilishning kamayishi, shaxslararo munosabatlarning murakkablashishi, ajrashishlarning ko‘payishi va buning natijasida to‘liq bo‘lmanan oilalar va o‘gay ota-onasi bo‘lgan oilalar sonining ko‘payishi, nikohsiz tug‘ilishning keng tarqalishi kabilar.


Mamlakatimizda oilaning ijtimoiy muammolari keskin darajada ko‘paymoqa, masalan, oilaning moddiy darajasining pasayishi, bolalar va ota-onalarning jismoniy va ruhiy salomatligining yomonlashishi, yolg‘iz erkaklar va ayollar soni ko‘payishi kabilar. Hozirgi kunda alohida yordamga muhtoj oilalar toifasida yosh oila bиринчи o‘rinda turadi. Ushbu turdagи oilani aniqlash uchun bir nechta yondashuvlar mavjud.

Yosh oila toifasiga turmush qurbanlarning yoshi 30 yoshdan oshmagan, yoki bolalarni (bolani) 30 yoshdan oshmagan ota-onadan biri, shu jumladan, turmushidan ajrashgan erkak (ayol), beva (beva ayol) kishilar tarbiyalayotgan oilalar kiritilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-4962-sonli Farmonida belgilangan.

Ma’lumki, yosh oila jamiyatning alohida fundamental guruhiga kiradi. U bir vaqtning o‘zida ijtimoiy guruh va jamiyat instituti hisoblanadi. Yosh oila jamiyatning, uning barcha ijtimoiy aloqa va munosabatlarining o‘ziga xos modelidir. Yosh oila jamiyat bilan o‘zaro murakkab munosabatlarda bo‘lib, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning ta’siriga uchraydi hamda o‘zi ham jamiyatga ta’sir ko‘rsatadi. Yosh oila uchun mezon, avvalo, bиринчи nikohning mavjudligi, juftliklar birgalikda yashayotgani, ya’ni uch yilgacha davom etganligi hamda er-xotin yoshidagi chegara, ya’ni 18 yoshdan 30 yoshgacha ekanligidir. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar har bir oilaga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qo‘ymaydi va bu yosh oilalarga professional yordam ko‘rsatish muhimdir.

Hozirgi kunda yosh oilalarning ajrashishiga sabab bo‘luvchi bir qator muammolar ko‘payib bormoqda. Jumladan, uy-joy muammoosi, moddiy ta’mint muammoosi, turmush o‘rtoqlarning rolini moslashtirish, bolalarni tarbiyalash va boshqalar.

¹ Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Тошкент: Университет, 1997.




1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi hududlarida nikohdan ajrashishlar soni²

Shuningdek, eng asosiy muammolardan biri – yosh turmush o‘rtoqlarning ajrashish darajasi ko‘payib borayotganidir. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil holatida 49198 nafar ajrashish holatlari kuzatilgan bo‘lib, hududlar kesimida eng ko‘p ajrashish Toshkent shahrida – 6169 nafar, Farg‘ona viloyatida – 5773 nafar, Toshkent viloyatida – 4826 nafar, Andijon viloyatida – 5480 nafar, Samarqand viloyatida esa 4639 nafarni tashkil qilmoqda (1-rasm).

Nikohdan ajrashganlarning har uchtadan bitta yosh oilalarni, asosan, 1 yil, shuningdek, 1–4 yil avval tuzilgan er-xotinlik ittifoqi tashkil etadi. Aholining nikohni saqlab qolish davriga ko‘ra ajrashish ko‘rsatkichi 2022-yilda 2018-yilga nisbatan quyidagicha o‘zgargan: 1–4 yil orasida ajralganlar salmog‘i 31,9 foizdan 29,8 foizga, 5–9 yilgacha yashaganlardan ajrashishlar esa 29,8 foizdan 26,8 foizga kamaygan. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi taqdim etgan ma’lumotlarga ko‘ra, 30 yoshgacha bo‘lgan yosh oilalar jami nikohdan ajrashganlarning 28,2% ini tashkil qilgan.

Oilaviy ajrashishlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo‘lgan ajrashishlarga to‘g‘ri kelgan, ya’ni jami nikohdan ajrashganlarning 62,3 foizini tashkil etgan.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi shahar va qishloqlarida nikohdan ajrashishlar soni³

Shuningdek, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi shahar va qishloqlarida nikohdan ajrashishlar soni tahlil qilinganida, shahar hududlarida 2022-yilda jami 30086 nafar ajrashish holatlari kuzatilgan bo‘lsa, shundan eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida – 5934 nafar ajrashish holati kuzatilgan. Keyingi o‘rinlarda Farg‘ona (3690 nafar), Andijon (3152 nafar) va Namangan (3112 nafar) viloyatlarining shaharlarida ushbu noxush holatlar yuqori bo‘lgan. Qishloq hududlari miqyosida 2022-yil holatiga ko‘ra, jami 18647 nafar ajrashish holati kuzatilgan bo‘lsa, shundan 2812 nafari Toshkentda, 2261 nafari esa Samarqand viloyati qishloq hududlarida yuqori bo‘lgan. Natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, qishloq hududlarga qaraganda shahar hududlarida ajrashish holatlari yuqori darajada ekanligi kuzatilmoxda.

Maqsad ajralishni taqiqlash yoki unga rasmiy ravishda qarshilik qilish emas, balki ajrashishlarning oldini olish, unga olib keladigan sabablar va omillarni bartaraf etishdan iborat. Ajrashishning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy hususiyatlari mavjuddir. Ushbu hususiyatlar oilaviy ajrashishlarning ko‘payishiga olib keladigan sabablar, ularni amalga oshirish jarayoni, oqibatlari, ajrashishgacha va undan keyingi vaqtidagi juftliklarning holatida ifodalanadi. Shunday xususiyatlardan biri ajrashish niyatini bildirib rasmiy tashkilotlarga murojaat qilish

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

tashabbuskori kim ekanligida ifodalanadi. Sharq oilalarida, ayniqsa, o‘zbek (qishloqlarida) oilalarida ajrashish tashabbuskori, asosan, erkaklar bo‘ladi va aksincha, Yevropa xalqlari oilalarida, yosh oilalarda va urbanizatsiyalashuv darajasi yuqori bo‘lgan shahar oilalarida ajrashish tashabbuskori ko‘proq ayollar bo‘ladi⁴.

O‘zbekistonda ajrashish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri – uning qishloq va shahar aholisida keskin farq mavjudligidir. Shahar aholisida oilalarning buzilish hollari qishloq aholisiga qaraganda yuqori bo‘lib, bunday farq Respublikaning barcha viloyatlarida kuzatiladi. Ajrashishlar salmog‘ining shahar aholisi tarkibida yuqori bo‘lishi qator omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan biri – shahar aholisining milliy tarkibidir. Keyingi sabablardan yana biri esa bu aolining ma’lumotlilik darajasi oshib borishidir.

Yosh oilalar yangi avlodni shakkantiradi va uning qanday bo‘lishi nafaqat mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga, balki yosh oilaning ijtimoiy farovonligi, salomatligi va madaniyatiga ham bog‘liq. Shu sababli ham yosh oilalarda ajrashish holatlarining oldini olish muhim hisoblanadi. Oilani saqlab qolish, unda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarning oldini olish va baxtli oila qilish har birimizning vazifamizdir. Shu jumladan, yosh oilalarda ajrashishlarning oldini olish, muammoli oilalar bilan ishlash uchun quyidagi ishlarni bajarish lozim:

1. Oilaviy muammolar va nizolarni hal qilishda yordam berish – muammoni aniqlash, testlar, so‘rovlар, suhbatlar (individual va guruh bo‘lib ishlash) o‘tkazish.

2. Ajrashayotgan juftliklar bilan ishlash (mutaxasis psixolog yordamidan foydalanish (individual va guruh), diagnostika, nizo sabablarini tekshirish.

3. Ajrashish yoqasidagi yosh oilalarga mojarosiz oilaviy hayot kechirishni o‘rgatish (turli treninglar o‘tish), turli o‘quv kurslari va dasturlar ishlab chiqish lozim. Masalan, oilaviy muammolar va holatlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, juftliklar munosabatlarini tiklash va tartibga solishda zarur bilim va malakalarni olishi, mutaxasislardan bilimlarni chuqurroq o‘lashtirishi, uni amaliyotga tatbiq etishni o‘rganishlari muhimdir.

⁴ Кавалев С.В. Психология современной семьи. – Москва, 1988.

4. Yosh oilalar bilan ishlashda maslahat berishning eng keng tarqalgan usullaridan foydalanish mumkin, jumladan: his-hayajon bila tushuntirish, taklif qilish, ishontirish, o‘xshashlik, mini-trening va boshqalar. Shuningdek, suhbatlarning turli xil mazmun bilan to‘ldirilishi va turli vazifalar bajarishi mumkin, ya’ni tarbiyaviy, psixologik, psixologik-pedagogik⁵ jihatdan.

Shu bilan birga, ajrashishlarning oldini olish doirasida nikoh-oila munosabatlarni tartibga solish mexanizmlaridan biri bu turli xil oilaviy xizmatlar bo‘lib, ularning asosiy maqsadi oila tomonidan o‘zining turli funksiyalarini optimal darajada bajarishini ta’minalash, oila ichidagi munosabatlarni yaxshilash, uyg‘unlikni ta’minalash, turmush o‘rtoqlarning shaxsiyatini va umuman oila hayotini rivojlanтирish kabilardir.

Yosh oilalarda nikoh nizolarining oldini olishning muhim usuli bu “xilma-xillik qoidasi”ga amal qilishdir. Turmush o‘rtoqlar bir-biri bilan munosabatlari qanchalik yaxshi bo‘lsa, oilani mustahkam qilish shunchalik osonlashadi va nizo kelib chiqishi shunchalik kamayadi. Agar turmush o‘rtoqlarni bog‘laydigan narsa faqat moliyaviy yoki jinsiy ehtiyoj bo‘lsa, unda ular orasidagi munosabat chigallashadi va u oilaviy ajrashishga olib keladi. Shunday ekan, er va xotinning o‘zaro munosabatlarida bir-biriga qarshi bo‘lmaslik, har doim ma’lum darajada o‘zining ma’lum xususiyatlarini saqlaydigan shaxs bo‘lishi kerak bo‘lgan qoida nikoh nizolarining oldini olishning muhim usullaridan biridir. Hattoki, sevishib turmush qurgan oilalarda ham nizolar tez-tez uchrab turadi. Buning uchun juftliklar doimo munosabatlarni to‘g‘irlashi, ularni faqat shaxsiy manfaatlar uchun ishlatmasligi, mojarolar, o‘zaro ayblovlari, ajrashishlarga emas, balki munosabatlarda shaxsiy o‘sish bo‘lishi uchun ishlash lozim. Agar er-xotin munosabatlari muammoli nuqtaga kelib qolgan bo‘lsa, uni faqat er-xotining hal qilish mumkin. Oilani asrab qolish er va xotinning o‘zini qo‘lida. Agar ularning oilani asrab qolish niyati bo‘lsa, u holda birgalikda harakat qilish kerak bo‘ladi.

Yakuniy qism. Yurtimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida bir qator imtiyozlar yaratib

⁵ Общая психодиагностика: Основы психодиагностики, немедицинской терапии и психологического консультирования /А.А. Бодалева, В.В. Столина. – Москва, 2001. – 101 с.

berilgan. Ulardan foydalanish, imtiyozli ipoteka kreditlari asosida turar-joylarni sotib olish uchun, shuningdek, yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnini va yo‘lini topib olishiga kamida 5–7 yil sarf etiladi. Yosh oilani mustahkamlash uchun ajrashishga olib kelmasdan, u yoki bu muammolarni hal qilish orqali ziddiyatli vaziyatlardan chiqib keta bilish kerak. Shu jumladan, ajrashish yoqasiga kelib qolgan juftliklarga bir qator maslahatlar berish mumkin. Masalan, juftliklar masuliyatlari bo‘lishlari, o‘z xatosi haqida o‘ylab ko‘rishlari, bir-biriga vaqt ajratishlari, ajrashish so‘zini lug‘atlaridan o‘chirishlari, bir-biriga iltifot ko‘rsatishlari, bir-birlarini sevishlari, tashqi ko‘rinishlariga e’tiborli bo‘lishlari, maslahatli ish qilishlari, moliyaviy budgetlari va rejalarini bir-biri bilan bo‘lishishlari, hurmat qilishlari, g‘azablanganda qaror qilmasliklari, farzandlari haqida o‘ylashlari lozimdir. Oilalardagi ajrashish muammolarini hal qilishishning yana bir yo‘llaridan biri bu ijtimoiy mehnat sohalarida ularning bandlik darajasini oshirish masalasidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqgan holatda quyidagicha taklif va tavsiyalar berish mumkin, jumladan:

- oilaviy hayotning barcha bosqichlari haqida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, oilaviy hayotga tayyorgarlik ko‘rish, ularni oila muqaddas qo‘rg‘on ekanligini anglaguniga qadar malakasini oshirish yosh er-xotinlarning ajrashish ehtimolini kamaytirishi mumkin. Bunga yosh er-xotinlarning

nikohdan oldin maslahat olishlarini ta’minalash orqali erishish mumkin. Bundan tashqari, turmush qurgandan so‘ng, yosh er-xotinlar nikoh darslarida qatnashishlari kerak;

- oilaviy hayotni mustahkamlashda mutaxassislar tomonidan beriladigan maslahatlarga amal qilish lozim. Agar yosh oilalar o‘z hayotini to‘g‘ri boshlay olsalar, tajribali mutaxassislardan maslahat, namunali oilalardan esa namuna olsalar kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan ko‘ra oladilar va uni yechimini topa oladilar.

- oilani saqlab qolish, uni himoya qilishga qaratilgan barcha sa‘y-harakatlar va jarayonlarda yo‘l qo‘yilgan xatolar tufayli bekor bo‘lishi mumkin. Agar er oilani saqlamoqchi bo‘lsa, oiladagi muammolar uchun javobgarlikni faqat ayolga yuklamasligi kerak. Oila baxtsizligi va ajrashishga bir kishi aybdor bo‘lmaydi, unga er-xotining ikkalasi ham mas’ul ekanligini inobatga olish darkor;

- yosh oilalar doimiy uchrab turadigan moddiy va moliyaviy ta’mindagi muammolarni yengib o‘tishlari uchun ularning bandligini ta’minalash hamda imtiyozlar ajratish masalalarida yordam ko‘rsatish zarurdir;

- yosh oilalarga ularning huquqlari, ma’suliyat va vazifalari borasida axborot va maslahat berish, ularni imtiyozlar, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirish bo‘yicha faoliyatni yanada kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Demografiya. Darslik. – Toshkent, 2014. – 364 b.
2. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya: o‘quv-qo‘llanma. – Toshkent: TDIU, 2011.
3. Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 1997.
4. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва Демография асослари. – Тошкент: Тафаккур, 2011. – 160 бет.
5. Қаюмов А.А., Якубов Ў.Ш., Абдуллаев А.Г. Аҳоли географияси ва демография асослари. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011.
6. Бодалева А.А., Столина В.В. / Общая психодиагностика: Основы психоdiagностики, немедицинской терапии и психологического консультирования. – Москва, 2001. – 102 с.
7. Алперович В.Д. Проблемы старения: демография, психология, социология. – Москва: ACT, 2004. – 352 с.
8. lex.uz/acts/-1232709

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE**

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia*

x a l q a r o i l m i y j u r n a l i

*международный научный журнал
international academic journal*

2024/1 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

Razzakova N., Sobirova E.,

Jabborov U.

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagи materiallardan foydalانilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.